

QUL UBAYDIY TURKIY G'AZALLARIDA ILOHIY ISHQ TALQINI

To'raxonova Nodira Abduvohid qizi,
NamDU filologiya fakulteti
4-bosqich talabasi
@mail: nodiratoraxanova9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Rohataliev Abbosjon Mirzahakim o'g'li,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
@mail: abbosjonroxataliyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVI asr o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri sanalgan Qul Ubaydiy qalamiga mansub ayrim turkiy g'azallar va ularda kuylangan ilohiy ishq mavzulari yoritib beriladi. Shuningdek, shoir ijodi u yashagan davr ijtimoiy muhiti bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. G'azallarining mazmun-mohiyati, obrazlar tizimi, tasvir vositalari hamda individual uslubi masalalari atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qul Ubaydiy, turkiy g'azal, tasavvuf, ko'ngil, gado, nafs, ruh, ma'rifat, ilohiy ishq, vasl, firoq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые турецкие газели Кула Убайдия, одного из самых ярких представителей узбекской литературы XVI века, и темы божественной любви, воспеваемые в них. Творчество поэта также изучается в контексте социальной среды того времени, в котором он жил. Содержание, образность, средства выражения и индивидуальный стиль его газелей были изучены подробно.

Ключевые слова: Кул Убайдий, турецкая газель, суфизм, сердце, мольба, душа, дух, просветление, божественная любовь, васл, фирак

Abstract. This article discusses some Turkish ghazals by Qul Ubaydiy, one of the brightest representatives of XVI th century Uzbek literature, and the themes of divine love sung in them. The poet's work is also studied in the context of the social environment of the time in which he lived. The content, imagery, means of expression and individual style of his ghazals have been studied in detail.

Keywords: Qul Ubaydiy, Turkish ghazal, Sufism, heart, begging, soul, spirit, enlightenment, divine love, wasl, firaq

Kirish. Qadimdan Sharq xalqlari, xususan, turkiy xalqlar adabiyotida tasavvuf ta'limoti g'oyalari mazmun-mohiyatini badiiy asar zamiriga singidrish, irfoniyl ruhga yo'g'rilgan baytlar bitish an'anasi mavjud bo'lib, bu xususiyat mazkur ta'limot g'oyalarining inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Unda sabr, qanoat, komillik, ilohiy ishq, vafo va sadoqat mavzulari abadiy va umumbashariy qadriyat sifatida talqin qilinadi. O'zbek adabiyotida turkiy tilda ijod qilgan shoirlar asarlarining nodir namunalarida ham komillikka yetishish, ilohiy ishq g'oyalari ramziy timsollar bilan atroflicha yoritib berilgan. Shunday mutasavvuf shoirlardan biri XVI asr Buxoro adabiy muhitida yashab ijod etgan shoh va shoir Qul Ubaydiy (Ubaydullaxon) edi. Shoir o'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'zining tasavvufiy qarashlari bilan muhim o'rin egallaydi.

Shoir ijodining janr va mavzu ko‘lami xilma-xil. Ayniqsa, uning turkiy g‘azallarida ilohiy va majoziy ishq, komil inson, ruhni poklash kabi g‘oyalar yetakchilik qiladi. Shundan kelib chiqib biz mazkur kichik tadqiqotimizda Qul Ubaydiy ijodidagi tasavvufiy timsollar tahlilini amalga oshirishda germenvtik, poetik-struktural, sotsial hamda psixologik tahlil metodlaridan foydalandik.

Adabiyotshunos A. Hayitmetov ta’kidlaganidek, Shayboniylar hukmronligi davrida adabiy hayotning jonlanishida ijod bilan shug‘ullangan hukmdorlarning o‘rni muhim bo‘lgan. Shu jihatdan olib qaraganda Qul Ubaydiy shoh-shoir sifatida Buxoro adabiy muhitida alohida ahamiyatga ega[2,134]. Uning she’iyatga bo‘lgan e’tibori o‘lkadagi ijod ahlining ijtimoiy mavqeini oshirib, shoir va olimlarning Buxoroda jamlanishiga imkon yaratgan. Buning natijasida shoir va olimlar Buxoroda jamlanib, bu shahar adabiy markazlardan biri sifatida yuksalgan. Ushbu holat Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ifodalangan shoh-shoir an’anasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Ubaydiy aynan shu an’anani Buxoro adabiy muhitida davom ettirgan ijodkor-hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning asrimizda Ubaydiy tarjimai holi va she’riyati bilan qiziqish 20-yillardan boshlangan va keyinchalik qisman davom etgan. Buning uchun professor Abdurauf Fitrat, Olim Sharofuddinov, A. Ibrohimov, S. G‘aniyevalarning ayrim qaydlari va matnshunoslik ishlarini yodga olish o‘rinli. Mustaqillik yillari mobaynida esa Ubaydiy hayoti va ijodini o‘rganishga to‘la imkon ochildi. Bu imkoniyatdan birinchi bo‘lib professor A.Hayitmetov foydalandi. Olim Ubaydiyning bir necha g‘azal, ruboiy, qit‘a, tuyuq, masnaviy va hikmatlaridan iborat “Vafo qilsang” nomli she’riy to‘plamini maxsus she’r boshi bilan chop ettirdi. Shoir ijodi bo‘yicha xorijda M.F. Kupruli, J. Ekman, Annemariy fon Shimmel singari olimlar tadqiqotlar olib bordilar[1,5].

Ubaydiy shoh va shoir, ijodkor, sifatida ilm-fan, san’at, adabiyotga keng yo‘l ochdi. Davlat ishlari bilan bir qatorda adabiy muhitga ham alohida e’tibor qaratdi. Hatto uning huzurida Buxoro shahrining olim va shoirlari jamlanib mushoiralar uyushtirar edilar. Ubaydiy serqirra iste’dod, bilim va tafakkur ko‘lamiga ega ijodkor edi. U hadis ilmida Xoja Mavlono Isfahoniy, fiqhda Mavlono Mahmud Azizonning, Qur’on qiroatida Movlono Yormuhammad Qoriy kabi zamonasining peshqadam allomalarining shogirdi edi. U Qur’on qiroatida tajvidsiz o‘qishni nojoiz sanagan. Turkiy tilda Qur’onga tafsir yozgan. Fiqhga bag‘ishlangan risola ham yaratgan. Ubaydiy shoir sifatida turk, fors, arab tillarida ijod qilgan. Bizgacha uning uchala tilda yaratgan asarlari jamlangan, 695 sahifadan iborat «Kulliyot»i yetib kelgan.

Ubaydiy mumtoz adabiyotdagi ko‘plab lirik janrlarda qalam surgan. Shuningdek, uning g‘azal va ruboiylaridagi mahorati alohida ko‘zga tashlanib turadi. Shoirning

o‘zbek tilidagi devonida 310 dan ortiq g‘azal mavjud. U shoh bo‘lishiga qaramay g‘azallarida dunyoning barcha ne‘matlari foniyligi va undagi jilvaga aldanmaslik kerakligini uqtirgan va o‘zi ham buni chuqur anglab yetgan shaxs edi. Uning ko‘plab g‘azallarida ham aynan mana shu g‘oya maqsad qilib olingan. Quyida ijodkorning «Ey ko‘ngil» deb boshlanuvchi g‘azalidan olingan parchada ham nafs, ko‘ngil, dunyo foniyligi kabi mavzular o‘z ifodasini topadi.

Ey ko‘ngul, qilma tama’ ul dilistondin yaxshilik,

Notavon jonimg‘a ul oshubi jondin yaxshilik.

El ichunda yaxshiliq ko‘rmaymen ondin der edim,

Ey ko‘ngil, men ko‘r madim kim ko‘rgay ondin yaxshilik. [3,13].

Bilamizki, ko‘ngil tasavvufda markaziy timsoldir. U ilohiy tajalli tushadigan ruhiy markaz sanaladi. Birinchi baytda shoir ko‘ngilga murojaat etish orqali o‘z-o‘ziga nasihat qilmoqda. Ko‘ngilga yuzlanib, dilistondan, ya‘ni foniyligini dunyodan ta‘ma qilma, undan hech narsa kutma deya, avvalo, ichki dunyoni tarbiyalash muhimligini uqtirmoqda. Keyingi misrada keltirilgan notavon jon timsoli esa bayt ma‘nosini kuchaytirib, inson ruhining Yaratgan oldida naqadar kuchsiz va ojiz ekanini, inson joni aziz hisoblansa-da, Haq oldida notavon, faqir ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Ikkinchi baytda qo‘llangan el, ya‘ni xalq timsoli esa tasavvufda bandalar olami ma‘nosida talqin etilib, bunda solik xalqdan yaxshilik topib bo‘lmaslikni va shu sababdan xalq bilan bog‘lanib qolmaslikni undan uzilib, Haq bilan ruhan va qalban birlashish zarurligini aytadi. Misrada qo‘llangan “ko‘r madim” so‘zi shunchaki ko‘z bilan moddiyatni ko‘rish emas, balki ma‘rifat va haqiqatni ko‘rmaslik, idrok qilmaslikni ham o‘zida aks ettiradi. Yuqoridagi keltirilgan ikki bayt orqali inson tasavvuf yo‘lini boshlash uchun, avvalo, ko‘ngilni dunyoning yolg‘on jozibasidan mahrum etib, ta‘madan voz kechib, xalqdan uzilib, Haqqa intilishi kerakligi yoritilgan.

Ubaydiy hukmdor sifatida davlat va mansabga ega bo‘lishiga qaramasdan so‘fiy sifatida ham yetuklikka erishgan ijodkor edi. Uning g‘azallarida dunyo g‘amlari tasavvufiy qarashlar bilan uyg‘unlashib, boyluk va mansab foniyligini ekani, ilohiy ishq har narsadan ustunligi talqin etiladi. Quyida tahlilga tortiladigan yana bir g‘azalida ham darveshlik va shohlik timsollari mushtarak tarzda ochib beriladi:

Base, farog‘ati bor, do‘stlar, gadolig‘ning,

Balo-u mehnati ko‘p asru podsholig‘ning. [3,14]

Baytda tasavvufdagi ikki qarama-qarshi timsol, ya‘ni shohlik va gadolik maqomlari zidlanmoqda. Bu yerda “gado” obrazi markaziy obraz hisoblanib, tasavvufda gadolik tilanchi va muhtoj kishini emas, dunyo ne‘matlaridan voz kechgan va faqat Haqqa suyanuvchi kishi ma‘nosini anglatadi. Shu sababdan gado zohiran kambag‘al bo‘lsa-da, botinan ruhiy dunyosi boy, osoyishta, farog‘atli va Haqqa yaqin

kishi sanaladi. Haqqagina ishonib, unga suyanib hayot kechiruvchilar esa farog‘atda umr kechiradi. Misrada faqirlik va gadolik kamchilik sifatida emas, aksincha kamolot darajasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Ikkinchi misradagi asosiy obraz esa “podsholik” timsoli bo‘lib, bunda podsholik faqat dunyoviy hokimiyatni boshqarishni emas, balki dunyodagi mansab va nafs ustidan hukmronlik qilish ma’nolarini ham ifodalagan. Shoir podsholik qanchalar ulug‘ maqom bo‘lsa-da, ichki jihatdan balo va mehnatga, mas’uliyat, mashaqqatga boy ekanini ta’kidlaydi. Tasavvufiy ta’limotlarda dunyoviy muhabbat va dunyo ne’matlari ustidan hukmronlik tuyg‘usi inson qalbini zabt etgani sayin kishi shunchalar Haqdan uzoqlashishni boshlaydi. Yuqoridagi g‘azalda ham ayni shu nuqtada “Balo” so‘zi orqali g‘am va qo‘rquv, “Mehnat” so‘zi orqali esa podshohlik ruhiy va jismoniy osoyishtalik bermasligini badiiy jihatdan kuchaytirib ifodalangan.

Ubaydiy she’rlarida yetakchi mavzu ishqdir. U majoziy muhabbat haqida so‘z yuritganda ham ilohiy muhabbatni chetda qoldirmaydi. Alloh vasliga yetishish tasavvuf ta’limotining bosh g‘oyasidir. Bu maqomga esa faqat ishq vositasi bilangina erishishi mumkin. Shu sababli, mumtoz adabiyotimizda ishqqa insonni ruhiy kengliklarga boshlovchi vosita sifatida qaraladi. Quyida shoirning turkiy g‘azalidan olingan parchada ham Yaratganga bo‘lgan cheksiz muhabbat va ishq talqin etiladi:

Mehribonlig‘din deding: Bir notavonim bor emish”,

Shukri lillahkim, seningdek mehribonim bor emish[3,11].

Ushbu baytda shoir o‘zining ojizligini va Yaratganning naqadar mehr-shafqatli ekanining e’tirof etarkan bunda notavonlik timsolida muhtoj, zaif, faqir va gunohkor banda ma’nosini ifodalab, uni Haqning mehribonligi bilan bog‘laydi. «Sen shu qadar rahmlisanki, mendek notavon bandang borligini ham unutmading», demoqda va shukur keltirmoqda. Shukur ham tasavvufda ma’rifat belgilaridan bo‘lib, Allohning bandalariga in’om etgan ne’matlari uchun «rahmat» ma’nosini bildiradi.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra banda Allohga kuchi bilan emas, balki ojiz-u notavonligi bilan yaqinlashadi, bu baytda so‘fiy o‘zining ojizligini tan olgani uchun ham Yaratganning mehr-shafqatiga sazovor bo‘lganini aytmoqda.

Shukur ne’matdan avval uni bergan (mun’im)ni ko‘rmoqdir. Shukur shikoyat etmaslik. Shukur qiluvchi kishilarga shokir deyiladi va u ne’matlarning ortishiga vasila bo‘ladi[4,34].

Notavonlik – ilohiy iroda va muqaddarot qarshisida ojiz, chorasiz qolmoq. Qulning Ilohiy iroda va qudrat oldida o‘z ajz va nuqsonini his etmog‘i va la havla va la quvvata demog‘i[3, 146].

Baytda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan yana asosiy ikki timsol mehribon va mehribonlik so‘zlaridadir. Misrada mehribon deya Allohni nazarda tutilgan bo‘lib,

“mehribon” so‘zi forscha shafqatli, sevuvchi ma’nolarini anglatadi. Mehribonlik timsolida esa Allohning Rahmon va Rohim ismlariga ishora mavjud. G‘azalning keyingi baytida esa vahdat va firoq mavzulari qalamga olinadi:

Vasling ayyomida ham qon yig‘ladim to bilgasen,

Kim firoqingda ani chashm xunfishonim bor emish [3,146]

Baytning birinchi misrasida “Vasling ayyomi” deya boshlanuvchi jumla bilan Alloh visoliga yetishishni nazarda tutadi. “Vasl” tasavvufda ma’shuqi azal bilan qovushmoq, o‘zlikdan kechib, Haqqa yor bo‘lmoq, vahdat zavqidir. Ammo vasl masalasida so‘fiylar bir xil aqidada emaslar. Ulardan ayrimlari ilohiy sirlardan voqif bo‘lgach, o‘rtadagi parda ko‘tarilib, inson Haq vasliga erishadi, deya ishonch bildirganlar. Visol har qanday holda Haq bilan birga, ya’ni Vahdatda bo‘lmoq ma’qomidir. Vasl ruhan Haq bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zidan kechmoqdir. Ma’shuq bilan qovushmoq, unga erishmoq vasl, vuslat, visol, vusul, undan ayrilmoq esa firoq, furqat, hijron, fasl, infisol va intiqa deyiladi[3,365]. Anglashilganidek, odatda vasl quvonchli bo‘lishi kerak. Ammo misrada so‘fiy nega visol onida, ya’ni Yaratganga yetishadigan paytida ham qon yig‘lagani aytilmoqda? Bu yerda chuqur tasavvufiy ma’no mavjud bo‘lib, solik Allohga yetishish chog‘ida o‘zida bor jamiki ayb-u nuqsonlarini ko‘radi va shu nuqsonli holati bilan Haqning buyukligi, ulug‘ligini anglab, uning huzurida hayo va qo‘rquvga tushib qoladi. Shu boisdan vaslda ham yig‘lab, hatto qon yig‘lash darajasigacha boradi. Qon yig‘lash ayni damda so‘fiy qalbining o‘t bo‘lib yonib-kuyishini ifodalab kelmoqda.

Baytning keyingi misrasida esa birinchi misraga nisbatan mazmuniy zidlik hosil qilinadi, Yaratganga yaqinlik – visol qanchalar kuchli bo‘lsa, ayriliq – firoq undan-da kuchli azob ekanligini izohlamoqda. Lug‘atlarda “Firoq”ning lug‘aviy ma’nosi arabcha “ayriliq” degan ma’noni anglatishi aytiladi. Tasavvufiy istilohga ko‘ra vahdat maqomidan uzoqda qolish. Visol holida bo‘lmaslik. So‘fiylar « Al-firoq! Al-firoq!», deydilar va hijrondan shikoyat qiladilar. Solikning asl Vatani bo‘lgan g‘ayb va ruhlar olamidani ayrilib, bu olamga kelmog‘i firoqdir.

Haqiqiy oshiqlar Haqqa yaqin bo‘lganda ham, Haqdan uzoqda bo‘lganda ham iztirob chekadi. Vaslda yig‘lash holati ishqning eng olis darajasi bo‘lsa, firoqda iztirob chekib, yig‘lash bu tabiiy holdir. Misrada «Xunfishonim bor emish» deya sening firoqingda qonli yosh to‘kuvchi ko‘zlarim bor deyilmoqda. So‘zning ma’nosi esa “xun” – qon, “fishon” – sachrab chiqish, otilish ma’nolarini anglatadi.

Ko‘rinadiki, shoir g‘azallari dunyo va oxirat, nafs va ruh, zohir va botin kabi qarama-qarshiliklarni uyg‘unlashtirgan. U hukmdor o‘laroq adolat me’zonlari bilan davlatni boshqarishga, ayni paytda so‘fiy sifatida tasavvufning bosh g‘oyasi hisoblangan “Vahdati vujud” ta’limotini yoyishga va unga erishishga harakat qiladi.

Shuningdek, shoir ijodida ko‘p uchrovchi yor, balo, notavon, firoq, hijron, mashaqqat, visol kabi timsollar orqali insonni ma‘rifat yo‘li sari intilishi kerakligi bayon qilinadi, o‘quvchini ruhiy poklanishga da‘vat etadi. Shu boisdan Ubaydiy ijodiyoti Shayboniylar davri adabiy me‘rosining o‘rganilishi jihatidan ham, tasavvuf taraqqiyotining o‘rganilishi jihatidan ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Ubaydiy ijodida ilohiy ishq tasavvufiy timsollar vositasida shoir adabiy-estetik qarashlari hamda ezgulik, go‘zal xulq, ilm-ma‘rifat, sabr va qanoat singari inson kamolotining mezoni sanalgan xislatlar bilan ziynatlanish g‘oyalarini xalqqa yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Zero, shoir ijodida uchrovchi ilohiy ishq shunchaki oddiy tuyg‘uni emas, balki inson ruhini, ichki dunyosini tarbiyalovchi murakkab ruhiy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев М. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2000 йил. – Б. 5.
2. Јумахо‘jayev N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 134.
3. Кул Убайдий. Вафо қилсанг. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 14.
4. Odiljon Avaznazarov. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasvvuf lug‘ati.-Toshkent: Tavfiqnashr, 2025- yil
5. Ҳоҗиаҳмедов А. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004. – Б. 87.
6. Комилов Н. *Тасаввуф*. – Тошкент: Moʻvarounnahr, 2009. – Б. 56.